

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA XALQ HUNARMANDCHILIGI ORQALI IJTIMOY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15579085>

Esanova Sarvinoz Uktamovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: salohiddin8380@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari va xalq hunarmandchiligi integratsiyasi asosida talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida tarixiy-madaniy yondashuv, innovatsion pedagogika va empirik metodlar asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalar yordamida xalq hunarmandchiligi elementlarini o'qitish ijtimoiy kompetensiyalar – jamoada ishlash, ijodkorlik, mehnatsevarlik, texnologik savodxonlik va milliy qadriyatlarga sadoqatni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Tayanch so'z va tushunchalar

ijtimoiy kompetensiya, axborot texnologiyalari, xalq hunarmandchiligi, integratsiya, talaba, zamonaviy ta'lim, STEAM yondashuvi, raqamli ta'lim.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И НАРОДНЫЕ РЕМЁСЛА

Эсанова Сарвиноз Уктамовна

Преподаватель институт предпринимательства и педагогики Денова

e-mail: salohiddin8380@gmail.com

Резюме

В статье рассматриваются возможности развития социальных компетенций студентов на основе интеграции современных информационных технологий и народных ремёсел. В ходе исследования были использованы культурно-исторический и инновационно-педагогический подходы, проведён педагогический эксперимент. Результаты показали высокую эффективность цифровых инструментов при обучении элементам народного творчества в формировании таких качеств, как

коллективная работа, трудолюбие, творческое мышление и уважение к национальным ценностям.

Ключевые слова и понятия

социальная компетентность, информационные технологии, народные ремёсла, интеграция, студент, современное образование, цифровое обучение, STEAM-подход.

DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL COMPETENCIES THROUGH MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES AND FOLK CRAFTS

Esanova Sarvinoz Uktamovna

Denova Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Teacher at the Department of Preschool Education

e-mail: salohiddin8380@gmail.com

Summary

This article explores the development of students' social competencies through the integration of modern information technologies and traditional folk crafts. The study employed historical-cultural and innovative pedagogical approaches alongside empirical research methods. The findings demonstrate that using digital tools to teach elements of folk art significantly enhances students' abilities in teamwork, creativity, diligence, technological literacy, and loyalty to national values.

Key words and concepts

social competence, information technology, folk crafts, integration, student, modern education, STEAM approach, digital learning.

Kirish. XXI asr – bu innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanish davri bo'lib, bu jarayon ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, ijtimoiy faollik, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, o'z fikrini erkin bayon etish kabi ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, xalq hunarmandchiligi asosida zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy rivojiga erishish mumkin.

Xalq hunarmandchiligi – bu nafaqat moddiy madaniyatimizning yuksak namunasi, balki tarbiyaviy va ijtimoiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan amaliy san'at turi sifatida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim vosita

hisoblanadi. Hunarmandchilik faoliyati o'z ichiga mehnatsevarlik, sabr-toqat, estetik did, milliy o'zlikni anglash, ijodiy yondashuv kabi ijtimoiy xususiyatlarni oladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, axborot texnologiyalari vositalaridan (virtual muhitlar, mobil ilovalar, grafik dasturlar, veb-resurslar va boshqalar) xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq o'quv jarayonida maqsadli foydalanish talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini yanada samarali shakllantirish imkonini beradi. Masalan, interaktiv platformalar orqali hunarmandlar ishi bilan tanishish, amaliy mashg'ulotlarda video darsliklar asosida hunar o'rganish, 3D modellashtirish dasturlari yordamida buyumlar loyihalash – bularning barchasi o'quvchining texnologik savodxonligini, madaniy ongini, jamoa bilan ishlash layoqatini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodni xalq san'ati va qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan qaror va farmonlari zahirida ham ana shunday integrativ yondashuvlar yotadi. Bunda "Raqamli ta'lim" konsepsiyasi va "Hunarmandlar maktabi" loyihasi doirasidagi ishlar alohida e'tiborga loyiq.

Shu boisdan, mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari va xalq hunarmandchiligi o'rtasidagi o'zaro integratsiyani o'rganish, u orqali talabai-yoshlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish asosiy maqsad qilib olingan..

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Zamonaviy ta'limda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim pedagogik muammolardan biri sifatida ko'rilmoqda. Ijtimoiy kompetensiya tushunchasi – shaxsning ijtimoiy muhitda moslashuvchan, madaniyatli, ijtimoiy mas'uliyatli va jamoa bilan samarali hamkorlikda faoliyat yuritish layoqati sifatida izohlanadi. [1].

Axborot texnologiyalari va xalq hunarmandchiligi o'rtasidagi integratsiya masalasi ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish nuqtai nazaridan yetarli darajada o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda ular alohida-alohida o'rganilgan bo'lib, ularning uyg'unligidan kelib chiqadigan natijaviy ijtimoiy ta'sirlar chuqur tahlil qilinmagan. [2].

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada xalq hunarmandchiligi asosida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarda quyidagi ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi ilk bor kompleks tadqiq etilmoqda:

- Mehnatsevarlik va ijodkorlik;
- Jamoadi ishlash va mas'uliyatni his qilish;
- Milliy o'zlik va qadriyatlarni anglash;

Texnologik va madaniy savodxonlik;

Estetik dunyoqarash va etnomadaniy xotira.

Mazkur yondashuv xalq hunarmandchiligi va axborot texnologiyalarining o'zaro uyg'unligi orqali zamonaviy shaxsni tarbiyalashda muhim metodik asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot talabalarini xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazish va tarbiyalash jarayonining samaradorligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari uyg'unlashgan holda olib borildi. Tadqiqotda xalq hunarmandchiligining pedagogik ahamiyatini aniqlash, uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish hamda hunarmandchilikni STEAM yondashuvi bilan uyg'unlashtirish natijasida talabalarining ijodiy va kasbiy rivojlanishini baholash maqsad qilingan.

Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va kasbiy ta'limga oid ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilindi. Xalq hunarmandchiligi va kasbiy tayyorgarlik bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar o'rganilib, ularning ta'lim va tarbiyadagi o'rni baholandi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, jumladan, STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy va interfaol o'qitish metodlari asosida hunarmandchilikni o'qitishning samaradorligi o'rganildi.

Nazariy tahlil – xalq hunarmandchiligi va uning tarbiyaviy ahamiyati bo'yicha ilmiy adabiyotlar va ilg'or pedagogik tajribalar o'rganildi.

Amaliy tadqiqot – xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish jarayonida interfaol va innovatsion metodlarning ta'siri kuzatildi.

Eksperiment – hunarmandchilikni STEAM yondashuvi bilan uyg'unlashtirishning talabalar rivojlanishiga ta'siri baholandi.

Kuzatish va tahlil – hunarmandchilik mashg'ulotlari jarayonida talabalar faoliyati o'rganildi, ularning hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy yondashuvi tahlil qilindi.

Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish talabalarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularda ijodiy tafakkur, milliy qadriyatlarni anglash va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, STEAM yondashuvi bilan integratsiyalashgan holda o'qitish talabalar bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish talabalarini nafaqat kasbiy mahoratga, balki milliy qadriyatlarga hurmat, ijodiy tafakkur va mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Hunarmandchilikni o'qitishning turli metodlari qo'llanilgan guruhlarini tahlil qilish orqali, innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitishning talabalar rivojlanishiga ta'siri quyidagi jihatlar bo'yicha baholandi:

Ijodiy tafakkurning rivojlanishi – talabalar o'z loyihalarida innovatsion yondashuv va yangi dizayn yechimlarini qo'llay boshladilar. Bu, ayniqsa, STEAM yondashuvi asosida ta'lim olgan guruhda yaqqol ko'zga tashlandi.

Kasbiy ko'nikmalar va amaliy malaka – talabalar hunarmandchilik jarayonida turli materiallar bilan ishlash, an'anaviy va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha aniq natijalarga erishdi. Ularning ishlari sifati o'sdi, bu esa amaliy mashg'ulotlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Motivatsiya va kasbga qiziqishning oshishi – hunarmandchilik bilan shug'ullangan talabalar kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabatlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Ular o'z ishlariga ijodiy yondashishni o'rgandilar va hunarmandchilikni kelajak kasb sifatida qabul qila boshladilar.

Jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari – talabalar guruh bo'lib ishlash orqali o'zaro fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish, o'z loyihalarini samarali taqdim etish kabi muhim qobiliyatlarni shakllantirdilar.

Hunarmandchilikni STEAM yondashuvi bilan integratsiya qilish jarayoni natijalari shuni ko'rsatdiki:

An'anaviy hunarmandchilik zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilganda talabalar materiallar va vositalar bilan innovatsion usullarda ishlashni o'rganadilar.

Hunarmandchilik mashg'ulotlariga texnologiyalarni tatbiq etish (masalan, 3D dizayn, lazer kesish) natijasida talabalar nafaqat milliy merosni o'rganib, balki zamonaviy bozor talablariga mos keladigan mahsulotlar yaratishga intilishadi.

STEAM metodikasini qo'llagan guruhda talabalar o'z hunarmandchilik loyihalarini ilmiy jihatdan asoslashga, iqtisodiy tahlil qilishga va tadbirkorlik g'oyalarini ilgari surishga moyillik bildirdilar. Xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish talabalarni kasbiy jihatdan rivojlantirish bilan birga, ularda ijodkorlik, milliy madaniyatga hurmat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Ayniqsa, innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash bu jarayonni samaraliroq qilish imkonini beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi asosida o'qitish nafaqat kasbiy ta'lim tizimida, balki umumiy ta'lim muassasalarida ham samarali tarzda qo'llanilishi mumkin. Bu metodikani kengroq tatbiq etish orqali talabalar nafaqat hunarmandchilikka, balki innovatsion ishlab chiqarishga ham jalb etilishi mumkin.

Xulosa. Zamonaviy axborot texnologiyalari bilan xalq hunarmandchiligi elementlarini uyg'unlashtirish orqali talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim jarayonining mazmunini boyitadi, o'quvchilarni madaniy, estetik va milliy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga undaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, talabalar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanganda:

jamoada ishlash, ijodiy fikrlash, milliy merosga hurmat, mehnatsevarlik ,kabi ijtimoiy kompetensiyalar ancha yuqori darajada rivojlangan.Xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy ta'lim berish talabalarning nafaqat mehnat ko'nikmalarini, balki ijodiy fikrlash, milliy qadriyatlarga hurmat va kasbiy mahorat darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarning bolalarning hunarmandchilik kasblariga bo'lgan qiziqishini oshirishda alohida o'rin tutishi kuzatildi. Hunarmandchilik o'qitish jarayonida milliy madaniyatni singdirish orqali talabalarning o'z tarixi va merosiga bo'lgan hurmatini shakllantirish mumkinligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son qarori. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 21-iyundagi qarori. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-son qarori. www.lex.uz.
4. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60b.
5. Shomirzayev M.X. Karimov I.I. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. – "TerDU nashr-matbaa markazi" – 2021, –228 b.
6. 4. Shomirzayev M. Kh. Technology of Educational Process in School Technology Education // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – №. 07. – C. 217.
7. 5.Shomirzaev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.- T.:“TerDU NMMN” 2021, - 228 b.
8. S.Esanova Talabalarda xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart sharoitlari 124-126 b

9. Xolmirzayev, B. (2022). Hunarmandchilik va dizayn: An'anaviy kasblarni zamonaviylashtirish. Buxoro: Sharq nashriyoti.
10. Ismoilov, D. (2018). Pedagogik innovatsiyalar va xalq hunarmandchiligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik. O'zbekiston Pedagogika Tadqiqotlari, B- 113.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-fevraldagi "Xalq hunarmandchiligi va kasb-hunar ta'limini rivojlantirish to'g'risida" gi farmoni.